

## ABDULLA AVLONIYNING TA'LIM TARBIYAGA OID QARASHLARI

*Bozarova Rayxona Elyorbek qizi*

*Nizomiy nomidagi TDPU*

*Tarix fakulteti Tarix yo'nalishi 3-bosqich talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Abdulla Avloniyning ta'lim tarbiyaga oid qarashlari, adibning boy pedagogik merosi, ta'lim-tarbiya masalalarini rivojlantirishdagi roli, uning pedagogik faoliyati, adabiyotga qo'shgan hissasi haqida to'liq bayon qilingan.

**Kalit so'zlar:** ta'lim, tarbiya, pedagogik meros, axloqiy xislatlar, xalq teatri.

**Kirish:**

XX asr boshlariga kelib, O'zbekistonning ijtimoiy-siyosiy hayotida, pedagogik g'oya taraqqiyotida Abdulla Avloniy alohida o'rin egallaydi. Abdulla Avloniy o'zbek xalqining san'ati va adabiyoti, shuningdek milliy madaniyatini, xalq ta'limi faoliyatlarini yo'lga qo'yishda katta xizmatlar qilgan adib, jamoat arbobi va iste'dodli pedagog hisoblanadi. Abdulla Avloniy o'zbek ziyolilari o'rtasida birinchilardan bo'lib, o'zbek xalq teatrlarini professional teatrga aylantirish uchun 1913-yili «Turon» nomli teatr truppasini tashkil qiladi.

**Adabiyotlar tahlili va metodologiya:**

Abdulla Avloniy 1907-yili Toshkentning Mirobod mahallasida, keyinchalik Degrez mahallasida yangi usuldagi maktablar ochgan. Maktablardagi o'quv jihozlarini o'zgartirgan, o'z qo'li bilan parta va doskalar yasagan. Maktabga qabul qilingan o'quvchilarning muhim qismi oddiy kambag'al kishilarning bolalari bo'lganligi sababli ularni kiyim-kechak, oziq-ovqat va daftar-qalam bilan ta'minlash niyatida, do'stlarining yordamida «Jamiyati xayriya» ni tashkil qiladi va bu jamiyatga o'zi raislik qiladi.

Abdulla Avloniy pedagog sifatida bola tarbiyasining o'rni to'g'risida fikr yuritib: «Agar bir kishi yoshligida nafs buzilib, tarbiyasiz, axloqsiz bo'lib voyaga yetdimi, Allohu akbar, bunday kishilardan yaxshilik kutmoq yerdan turib yulduzlarga qo'l uzatmak kabidur», - deydi. Uning fikri bo'yicha, bolalarda axloqiy xislatlarning tarkib topishida ijtimoiy sharoit, oilaviy muhim va bolaning atrofidagi insonlar juda yuqori ahamiyatga ega. O'zbek pedagogikasi tarixida Abdulla Avloniy birinchi marta pedagogikaga «Pedagogiya», ya'ni «bola tarbiyasining fanidir», deb ta'rif berdi. Tabiiyki, bunday ta'rif Avloniyning pedagogika fanini yaxshi bilishidan dalolat beradi.

**Natijalar:**

Avloniy tarbiyaning doirasini keng ma'noda tushunadi. Uni birgina axloq bilan chegaralab qo'ymaydi. U, birinchi o'rinda, bolaning sog'ligi to'g'risida g'amxo'rlik

qilish kerakligini uqtiradi. Avloniyning fikri bo'yicha, sog'lom g'oya, yaxshi axloq, ilm-ma'rifatga ega bo'lish uchun badanni tarbiya qilish kerak: «Badanning salomat va quvvatli bo'lmog'i insonga eng kerakli narsadir. Chunki o'qimoq, o'qitmoq, o'rganmoq va o'rgatmoq uchun insonga kuchli, kasalsiz jasad lozimdir».

Abdulla Avloniy badan tarbiyasi muammosida bolani sog'lom qilib o'stirishda ota-onalarga murojaat qilsa, bolani fikr tomondan tarbiyalashda o'qituvchilarning faoliyatlariga alohida e'tibor qaratadi. Avloniy har bir kishi o'z vazifasiga sadoqat bilan kirishishi, agar u murabbiy bo'lsa, o'z shogirdlarining ko'ngliga ma'rifat ishqini solishi, xalq orasiga ma'rifat tarqatishi kerakligini ta'kidlaydi. «Hozirgi zamonda maqsadga yetmak, o'z millatiga xizmat qilmoq, xalqg'a maqbul bo'lmoq uchun ilm va mol lozimdir».

### **Muhokama:**

Abdulla Avloniyning ta'lim-tarbiya sohasidagi qarashlari o'zbek xalqining ruhiyati, turmush tarzi, milliy qadriyatlar bilan uzviy bog'langanligi adibning boy pedagogik merosi ta'lim-tarbiya muammolarini takomillashtirish, uni o'quvchilar qalbida rivojlantirishda axloqiy va ma'naviy barkamol yoshlarni tarbiyalashda milliy maktab va qimmatbaho manba bo'lib xizmat qilganini o'rganib chiqish davr talabiga aylanmoqda.

Avloniyning ta'lim-tarbiyaga doir asarlari orasida “Turkiy guliston yoxud axloq” asari katta ahamiyatga molik axloqiy va ta'limiy tarbiyaviy asardir. Asarda insonlarni yaxshilikka chaqiruvchi, yomonliklardan qaytaruvchi ilm-axloq to'g'risida fikr yuritiladi. Shuningdek, adib milliy ta'lim-tarbiya tizimini yaratishga beqiyos hissa qo'shganligi sababli 2020-yil 30-sentyabr sanasida “Buyuk xizmatlari uchun” ordeni bilan taqdirlandi.

### **Xulosa:**

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, Abdulla Avloniy ijodiy merosi bilan dastlabki darsliklarning mukammal yaratuvchisi sifatida ham gavdalanganligi, asarlaridagi ta'lim va tarbiyaga oid tushunchalarning, g'oyaviy-badiiy mushohadalarning tadqiq etilganligi, bundan tashqari, mavzuning dolzarbligi ma'rifatparvar adib, serqirra ijodkor Abdulla Avloniyning ijodida hozirgi vaqtning eng asosiy muammosi-ta'lim va tarbiyaga oid g'oyalarining dalili hikoyalar, she'riy lavhalar misolida yoxud majoziy xarakterga ega hikoyatlar yordamida ochib berilishi asnosida ko'zga tashlanadi.

### **Adabiyotlar ro'yxati:**

1. Dilova N.G. Ajdodlar merosida ta'limdagi o'zaro hamkorlik munosabatlari. Science and Education. 2021.
2. Dilova N.G. O'quvchilarning shaxsiy sifatleri - pedagogik hamkorlikning dastlabki tamoyili. Science and Education. 2021.
3. Dilova N.G. Sharq allomalarining ilmiy merosi – uchinchi renesans uchun katta imkoniyat. Science and Education. 2021.
4. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq - Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2019.